



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

KO‘K QORAKO‘L QO‘YLARINI ARXAR BILAN GIBRIDLASH

Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘gli-o‘qituvchi

Amanboyeva Gulzoda Maxmudjon qizi-talaba

Azimov Nodir Qodir o‘g‘li-talaba

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ko‘k qorako‘l qo‘ylari konstitutsiyasi bo‘sh, terisi yumshoq va iqlim sharoitlariga qora qorako‘l qo‘ylariga nisbatan chidamsizroqdir. Ko‘k qorako‘l qo‘ylari konstitutsiya tiplari jihatdan mustahkam, qo‘pol va nozikka bo‘linadi. Mustahkam konstitutsiyali ko‘k qo‘ylar chidamliligi jihatdan xuddi shu xil konstitutsiyali qora qorako‘l qo‘ylaridan har tomonlama bo‘shliq qiladi.

Kalit so‘zlar: Duragay qo‘zi, ko‘k qorako‘l qo‘yi, arxar, to‘q jigar rang jun, sur qo‘chqorlar

Mustahkam konstitutsiyali, bir xil sharoitda o‘sgan, ko‘k qo‘chqorlar shu xil konstitutsiyali sovliqlarni juftlash natijasida ham oq tanglay qo‘zilar tug‘iladi. Oq tanglay qo‘zilarning odatda qo‘zi vaqtida nobud bo‘lishi esa o‘tgan temalardan ma‘lum.

Yuqori sifatli ko‘k qo‘zilar olishni va ularni tabiiy nobudgarchiligini bitirish uchun ko‘k qo‘zilar konstitutsiyasini mustahkamlash bilan ular hayotchanligini oshirish lozim edi. Ana shu maqsad bilan ko‘k qorako‘l qo‘ylari Nurota tog‘ida yashaydigan yovvoyi tog‘ qo‘chqori – arxar bilan duragaylana boshlandi. Buning uchun Samarqand oblasti Nurotaning – “Uxum” va “Yangi hayot” tog‘ qishloqlari ustidagi “Beshmarmoq” va “Arxar - kamoq” tog‘ cho‘qqilarida (dengiz sathidan 1500 – 2000 m baland) ov o‘tkazildi. Natijada 1954 yilda birinchi yovvoyi qo‘chqor otib olindi. Bu qo‘chqor 4,5 yoshda, tirik vazni 117 kg edi.

Kallasi qalin, qisqa va juda yo‘g‘on junlar bilan qoplangan. Bu junlar osti to‘q jigar rang va uchi ea oqimtir edi. Bu xususiyat bamisoli sur qo‘chqorlar rangini eslatardi.

Birinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar. 1955 yil bahorda Nurota rayonidagi “Kommunizm” sovxozida uch erkak qo‘zi va bir urg‘ochi, Kirov nomli sovxozda ikki erkak va ikki urg‘ochi qo‘zi olindi. Ikkala sovxozda jami 8 ta duragay qo‘zi olindi.

Birinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar rangi onalariga o‘xshasa – da, tashqi tana tuzilishi va xatti – harakati jihatdan yovvoyi arxadan qolishmas edi. Bularning kallasi engil, peshonasi keng, tumshug‘i cho‘zinchoq, quloqlari tik, bo‘yni uzun, tanasi uzun va juda kelishgan, ko‘krak qismi orqa qismiga nisbatan kuchliroq rivojlangan, dumi qisqa, oyoqlari baquvvat, payli va baland, tuyoqlari esa juda qattiqdir. Duragay qo‘zilar qorako‘l qo‘zilariga nisbatan juda tetik va sovuqqa

chidamli bo‘ladi. Qorako‘l qo‘ylari qo‘zilarini emizish uchun o‘zlari istab topsa, duragay qo‘zilar o‘z onalarini juda osonlik bilan topadilar.

Birinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilarning tug‘ilgan kunidagi tirik vazni qorako‘l qo‘zilaridan ortiq, bu tafovut yakka tug‘ilgan duragay qo‘zilarda 1,8 kg ni tashkil etadi.

Urg‘ochi qo‘zilar tirik vazni 0,2 kg yoki 4,7% sof zot qorako‘l qo‘zilaridan ortiq bo‘ldi. Birinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar terisi qalin va juda zich, pigmentlanish darajasi kuchlidir.

Juni qalin, gullari baquvvat va jingalaklanish darajasi ham anchagina yaxshi. Junining yo‘g‘onligi arxar junidan anchagina ingichkalashdi. Birinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar bir yoshligida tashqi tana tuzilishi jihatdan arxarga ancha o‘xshash edi.

Ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar. Birinchi bo‘g‘in arxar + qorako‘l qo‘ylaridan olingan duragay qo‘zilar voyaga etgach, ularning qo‘chqorlaridan ko‘k qorako‘l sovliqlarini va urg‘ochisini esa ko‘k qorako‘l qo‘chqoridan qochirish muljallandi.

Yuqorida aytilgan duragay qo‘zilar voyaga etgach bichimlab, urug‘donlaridan sun‘iy ravishda urug‘lari olindi.

Bu urug‘lar bilan ko‘k qorako‘l sovliqlar sun‘iy urug‘lantirildi. Natijada 147 – 149 nomerli duragay qo‘chqor bilan urug‘lantirilgan sovliqlardan 10 ta ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zi olindi.

Ixtiyoriy qochirish natijasida 61 bosh, sun‘iy qochirish natijasida 17 bosh, jami 1957 yil bahorida 78 bosh ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar olindi.

Barcha olingan ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilarning 55 tasi ko‘k, 20 tasi qora, 2 tasi qambar va biri guligaz bo‘ldi. Oq tanglay qo‘zilar ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar ichida bo‘lmadi. Barcha qo‘zilarning konstitutsiyasi mustahkam, hayotchanligi Yuqori. Ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilarning tirik vazni sof ko‘k qorako‘l qo‘zilaridan ortiq bo‘ldi.

Ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar ichida o‘rta ko‘k qo‘zilarning mavjudligi juda qimmatli belgidir.

Tashqi tana tuzilishi jihatdan ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar ko‘pincha qorako‘lga yaqinlashgan. Tezligi, chaqqonligi va chidamliligi jihatdan arxarga o‘xshashdir. Biroq terisi sof zot qorako‘lga yaqinlashgan bo‘lsa – da, arxarning umumiy tashqi tana belgilari (quloqlari) ham yaxshi saqlangan. Duragay qo‘zilar sovuqqa ham chidamlidir.

Uchunchi bo‘g‘in duragay qo‘zilar. 1958 yilning kuzida ikkinchi bo‘g‘in duragay qo‘chqorlardan 1148 bosh sovliq qochirildi, shulardan 923 tasi ko‘k

qorako‘l sovliq edi. Ikkinchi bo‘g‘in sovliqlarni ko‘paytirish maqsadida bo‘g‘in duragay qo‘chqorlardan yana 201 bosh ko‘k sovliqlar qochirildi.

Olingan natijalarni solishtirib ko‘rish maqsadida shu joyning o‘zida urchitiladigan sof zot ko‘k qorako‘l qo‘ylaridan 852 bosh sovliq qorako‘l qo‘chqorlaridan qochirildi. Sof zot qo‘ylar ichida rangi bir xil va har xil qo‘chqor va sovliqlarni juftlash qo‘llanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqsudov I., Jo‘raev J.Ya., Amirov Sh.Q-CHORVACHILIK ASOSLARI Toshkent, 2012.
2. Nurislom Tuxliyev - O‘zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik Malumotnoma “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QORAKO‘L ZOTLI QO‘Y BIOLOGIYASI. Журнал естественных наук, 7(1).
4. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QO‘YLARNI URCHITISH. Журнал естественных наук, 7(1).
5. Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘gli, Azimov Nodir Qodir o‘g‘li, & Erkinova Nargiza O‘tkir qizi. (2021). QORA MOLLARNING ICHKI TUZILISHI (INTERERI). Журнал естественных наук, 7(4).